

NASRIY ASARLARDA SO‘Z TARTIBINING LINGVOPOETIK QIYMATI

Sobirov Anvar Kuvandikovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali
sobirovanvar52@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nasriy asarlarda soʻz tartibining lingvopoetik imkoniyatlari atroflicha oʻrganilgan. Natijada sheʼriy, drammatik va ogʻzaki matnlardan nasriy matnlardagi soʻz tartibi sezilarli darajada farq qilishi nomoyon boʻldi, ayniqsa, A.Qodiriy va E.Aʼzamning qator roman va hikoyalarida muallif oʻzgargan soʻz tartibidan foydalanib, ichki tuygʻu, kesatq, kinoya va taʼkid maʼnolarini ifodalay olganligini kuzatdik. Mazkur ijodkorlar, asosan, bosh boʻlaklarning oʻrnini almashtirish hisobiga jumlaning taʼsir kuchini oshirishga intilishgan va bu muvaffaqiyatli chiqqan.

Kalit soʻzlar: *soʻz tartibi, lingvopoetik imkoniyat, badiiy nutq, intonatsiya, mantiqiy urgʻu, roman, hikoya, matn tahlili, togʻri tartib, oʻzgargan tartib.*

LINGUOPOETIC POSSIBILITIES OF WORD ORDER IN PROSE WORKS

ANNOTATION

In this article, the linguopoetic possibilities of word order in prose works are studied in detail. As a result, it became impossible to distinguish the word order in prose texts from poetic, dramatic and oral texts, especially when the author used a changed word order in a number of novels and stories by A. Qadiri and E. Azam. , we observed that he was able to express the meanings of inner feeling, sarcasm, irony and emphasis. These creators mainly tried to increase the impact of the sentence by changing the position of the main clauses, and it was successful.

Key words: word order, linguopoetic possibility, artistic speech, intonation, logical emphasis, novel, story, text analysis, correct order, changed order.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОРЯДКА СЛОВ В ПРОЗОВЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно изучаются лингвопоэтические возможности порядка слов в прозаических произведениях. В результате стало невозможно отличить порядок слов в прозаических текстах от поэтических, драматических и устных текстов, особенно когда автор использовал измененный порядок слов в ряде романов и рассказов А. Кадири и Э. Азама. заметил, что он способен выражать значения внутреннего чувства, сарказма, иронии и акцента. Эти создатели в основном пытались усилить воздействие предложения за счет изменения положения главных предложений, и это удалось.

Ключевые слова: порядок слов, лингвопоэтическая возможность, художественная речь, интонация, логическое ударение, роман, повесть, анализ текста, правильный порядок, измененный порядок.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, oʻzida turli uslub koʻrinishlarini muallifning badiiy niyatiga koʻra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki oʻquvchiga estetik zavq berish, taʼsir etish xususiyatiga ega boʻlgan gʻoyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida boʻlganidek

qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi [Yo'ldoshev, 2010, 18.].

Badiiy matn tahlilida tekshiruvchining pozitsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda yozuvchining estetik niyatini o'rganish maqsad qilinganda «yozuvchi markazli» tahlil amalga oshiriladi va muallifning badiiy mahorati ochib beriladi. Agarda, asar qahramonlarining ichki dunyosi, lisoniy madaniyati tekshirish maqsad qilingan bo'lsa, asar «qahramoni markazli» tahlil amalga oshiriladi. Shu bilan birga «matn markazli» tahlil ham mavjud bo'lib, unda barcha til birliklari badiiy matnni shakllantiruvchi birliklar sifatida lingvistik nuqtai nazardan tahlilga tortiladi [Poducheva, 2008, 321.].

O'zbek tilshunosligida nasriy matnlar tahliliga doir T.Jumayevning "Umar Boqiy asarlarining lisoniy xususiyatlari", Z.Xolmanova "Shayboniyxon" dostoni leksikasi", R.Normurodov "Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari", Y.Sayidov "Fitrat badiiy asarlari leksikasi", F.Babajanov "O'zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida)", S.Boymirzayeva "Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi", M.Tojiboyev "Muhammad Shayboniy devoni tilining leksik-semantik xususiyatlari", A.Xalikov "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari", Z.Xolmanovanning "Boburnoma" leksikasi tadqiqi", A.Xasanovning "Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi jihat" kabi bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ularda ijodkorlarning so'z tartibidan foydalanish mahorati va milliy roman yozishida o'ziga xos muhim ilmiy, badiiy ahamiyat kasb etganligi tahliliy o'rganish lozim.

— To'g'ri gap, — dedi Rahmat, — otam Toshkand borg'anlarida to'p-to'g'ri sizning eshikingizga tushsinlar-da, siz saroyga tushing. Bu taraf bilan sizdan o'pkani **biz** qilsaq arziydir.

— Haqqingiz bor, — dedi Otabek, — ammo birinchidan, sizning havlingizni so'rog'lab topish **menga** qiyinroq ko'rindi, undan so'ng molimizni ortg'an tuyakashlar shu saroyg'a tayinlang'an edilar.

— Ko'b martalab mehmon bo'ldim, — dedi qutidor, — ul vaqtda bobongiz ham hayotda edilar. Bu ikkisining so'zlariga quloq solib chetda o'lturgan Hasanali ham gapga aralashdi:

Bu yerda ega o'z o'rnini o'zgartirib ta'kid ma'nosini ifodalab turibdi.

Lingvistik tadqiqotlar tobora rivojlanib, tilshunoslikda yangi-yangi sohalar paydo bo'la boshladi. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, neyrolingvistika va pragmalingvistika sohaları bugungi kunda dunyo va o'zbek tilshunosligida tez sur'atlarda taraqqiy etmoqda. Shu o'rinda pragmatika va sotsiopragsmatikaga doir ayrim izlanishlar ham dunyo miqyosida faol o'rganilayotganini, o'zbek tilshunosligida esa nisbatan kam e'tibor berilayotgan sohalardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Pragmatika tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i.

Sh.Safarovning ta'kidlashiga ko'ra, pragmatika amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan barcha bilim sohalarini birlashtiruvchi fan sifatida qaralgan semiotika doirasida yuzaga kelga va rivojlangan [Safarov, 2008, 149.]. Pragmatikani semiotikaning alohida sohasi sifatida qarash haqidagi fikrni birinchilardan bo'lib, Ch.Morris ma'lum qilgan. Lisoniy belgilar tasnifini yaratgan bu olim semiotikani uch mustaqil qism, ya'ni lisoniy belgilarning predmetga nisbatan munosabatini o'rganadigan semantika, belgilarning bir-biri bilan munosabatini tavsiflovchi sintaktika hamda belgilarning ulardan foydalanuvchi shaxslarga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi pragmatikaga ajratishni taklif qildi [Arutyunova, Paducheva, 1985, 8-9.]. Keyingi yillarda ushbu yo'nalishlardan semantika va sintaksis jadal taraqqiy qilgan bo'lsa, pragmatikaga e'tibor sustroq bo'lganini ta'kidlash

lozim. O'tgan asrning oxirgi choragiga kelibgina, pragmatika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllana boshladi.

Ilk nashrlarda pragmalingsvistikaning obyektini aniqlashda bir tomonlama yondashuv ustuvor bo'lib, ularda til birliklarining ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari oldingi o'rinda turgan edi. G.Solganik lisoniy vositalar tanlovini pragmatik hodisa ekanligini qayd etadi [Solganik, 1981, 214.]. Shuningdek, V.L.Nayer nutqiy tuzilmaning pragmatik xususiyatini "so'zlovchining ongli ravishda, maqsadli ta'sir ko'rsatish istagi", deb izohlaydi.

Til birliklari vositasida o'quvchiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari T.A.Deykning tadqiqotlarida keltirilgan. Uning talqinicha, pragmatik nazariyaning asosiy tamoyili so'zlovchining tinglovchi ruhiy holatiga ta'sir o'tkazishi bilan bog'liq. Lekin olim pragmatikaning tor ma'noda talqin qilinishiga qarshi bo'lgan. Pragmatika – tilning vaziyatli qo'llanishi to'plami, pragmalingsvistika – til egasiga nutqiy tuzilmalar qatorini ma'lum kontekst bilan bog'lash imkonini beradigan qoidalar tizimini qoliplashtirish ekanini ta'kidlagan [Van Djejk 1976].

Van Djejk, shuningdek, pragmatikani sotsiolingsvistika va psixolingsvistikadan farqlash lozimligini ham tushuntirib beradi. Bundan tashqari, tavsifiy pragmatikada tildan foydalanishning amaliy qoidalari shakllantirilsa, nazariy, "mavhum" pragmatikada esa kuzatuvlar asosida umumiy kategoriyalar ajratilib, ularning o'zaro aloqasi o'rganiladi.

Barchaga ma'lum "Sintaksis va semantika" seriyasining 3 va 9 jildlari mazkur masalaga haqida edi, J.Ostin, J.Syorl, J.Saddok, X.Grays, D.Vandervekin, V.V.Bogdanov, I.V.Kobozeva kabi ko'plab olimlarning ishlarida nutqiy akt nazariyasining asosiy tamoyillari batafsil bayon qilingan [Demyankov, 1995].

So'zning nomlanayotgan narsa-hodisa bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha ma'nosi pragmatikaga tegishlidir. Nutqiy aktlar masalasida, matn tilshunosligida bo'lgani kabi, matn mazmuni va berilayotgan axborot mazmunining qaysi qismi doimiyligini yoki muallif maqsadiga bog'liq holda shakllanganligini ajratish oson emas. Har holda, muallif maqsadining nutqiy tuzilmada voqelanishi semantikaning ishtirokisiz kechmaydi. Shu sabab, semantika va pragmatikani "obyektiv mavjudlik–muallif tomonidan kiritilganlik" qarama-qarshiligida farqlash murakkablashib boradi. Natijada, mazkur masala bilan qiziqqanlarning xulosalari xilma-xil ko'rinishda bo'ladi. Van Deyk, G. Kamp, A. Kasher, G.G. Pochepev, V.V. Bogdanov kabilar nutqiy aktlar nazariyasini pragmatika sohasiga tegishli deb hisoblaydi. Ayrimlar semantika va pragmatikani nutqiy formulalar qo'llanishining doimiyliigi yoki favqulodda ekanligiga nisbatan chegaralash yo'lini izlaydi. Bu esa nutqiy aktlarning muayyan turlarga bo'linishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, pragmatikani keng ma'noda anglash lozimligi, u tilshunoslikning semantika va sintaksis sohalarda o'rganiladigan masalalarni ham qamrab olishi va o'ziga xos umumlashtiruvchi yo'nalish vazifasini o'tashi, shunga nisbatan, pragmatik nazariya so'zlovchi va tinglovchining gap yoki matn propozitsiyasini bir xilda qabul qilishini e'tiborga olishi ham ta'kidlangan [Safarov, 2008].

Tadqiqochi V.Xolmatovanning pragmatika tushunchasiga doir qarashlari, tahlil va talqinlari e'tiborga loyiq. Ishda muallif tadqiqotlariga zarur o'rinlarda murojaat qilinganini ta'kidlash lozim. Darhaqiqat, tilning jamiyatda bajaradigan muhim vazifalaridan biri – muloqot vositasi rolini o'tashdir. Pragmatik bilim, o'z navbatida, inson faoliyati davomida to'plangan tajriba natijasidir, axborot almashinuvi jarayonida ushbu bilim lisoniy voqelanadi va shu yo'sinda ongda saqlanadi. Lekin har bir alohida nutqiy muloqot paytida lisoniy belgi yangicha mazmun ifodalay olishi mumkin. Pragmatikaga oid muammolar hozirgi paytda boshqa sohalarga oid ishlarda ham muhokama qilinmoqda.

Lingvosotsiopsixologiya sohasi vakillari pragmatikani ikki yo'nalishda, ya'ni matn – muallif va matn – adresat munosabatlarida tavsiflashni ma'qul ko'radilar. Natijada, axborotni uzatuvchi

hamda axborotni qabul qiluvchi pragmatikalari farqlanmoqda. Ulardan birinchisi “statik” xarakterga ega, chunki matn faqat birgina talqinga, ya’ni muallif talqiniga ega, adresat talqini esa, aksincha, dinamik xarakterdadir, zero “matnni qabul qiluvchilar soniga qarab, talqinlar ham davomsiz bo‘lishi kutilgan hol” [Dridze, 1980,124-125]. Mualliflarning e’tiroficha, matn sathida bu masala muhim bo‘lmasdan, balki ularning faollashuvi o‘zaro bog‘liqlikda kechadi.

Biroq Erkin A’zam asarlari lingvopoetikasi alohida tadqiqot obyektini bo‘lmagan. Undagi so‘z tartibi masalasi ham o‘rganishni taqozo qiladi.

Yozuvchi Erkin A’zamning kinoqissa janriga oid asarlari matnini sotsiopragmatik tahlil qilish orqali muallifning o‘quvchiga ta’sir kuchini aniqlab olish imkoni paydo bo‘ladi. Asardagi nutqiy aktlar tahlili qahramonlarning so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan xususiyatlarini, uning insonga ko‘z ilg‘amas ta’sirini namoyon qiladi. Mazkur zamonaviy tahlil yo‘li orqali asarlarning badiiy qimmatini ham teranroq anglash imkoni bo‘ladi.

– *Kirolmaysan! Xudoga ham, bandasiga ham ayon!*

– *Mayli, jo‘ra, buyam bir gap-da. Mana, sen o‘qiyapsan-ku, bo‘ladi-da menga shu.* // Yozuvchi Erkin A’zam Ramazon sodda, beg‘ubor, samimiy, oqko‘ngil, dallig‘uli yigit edi, deb ta’riflab qo‘ysa ham bo‘lardi. O‘quvchiga ma’lumot sifatida yetarli bo‘lar edi. Biroq muallif so‘z tartibini o‘zgartirish orqali adresatga quruq xabarni emas, oddiy odatiy suhbatni o‘z o‘rnida maqsadli qilib ustalik bilan keltirmoqdaki, o‘quvchi matnda yozilmagan ma’lumot va hissiyotlarni darhol angelaydi. Ramazonning: “– *Mayli, jo‘ra, buyam bir gap-da. Mana, sen o‘qiyapsan-ku, bo‘ladi-da menga shu*” deganining o‘zi barchasini ifoda etadi.

Yoki keyingi matnni ko‘zdan kechiramiz: // *Qo‘y-e, manavi olmalarga qarasang-chi! Bunaqasi Bog‘i Eramda ham bitmaydi!* – *So‘ngra u chamadonini titkilab, o‘n qavat dag‘al qog‘ozga o‘ralgan allanimani chiqaradi:* – *Mana buni enang berib yubordi, suzma-chakki.* “*Chalob qilib ichsin, chanqog‘i bosiladi, – dedi.* – **Shaharlik qizlardi ketidan yuguraverib tomoqqinalari qaqrab ketgandir bolaginamning**”, *dedi.* // Muallif o‘quvchiga o‘zbek onalari juda mehribon, farzandlari haqida doim qayg‘urib yuradi, yoki onasi o‘g‘liga do‘stidan chakki berib yuboribdi, deb tasvirlab qo‘ysa ham bo‘lardi. Ammo yozuvchi bunday qilmadi. Ko‘rinib turganidek, **so‘z tartibini o‘zgartirish asosida** jo‘ngina qilib jaydari do‘stining tilidan tushunarli qilib ifodaladi qo‘ydi. To‘g‘ri matnda ona farzandi foydali yoki foydasiz ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib yursa ham baribir g‘am tashvish chekadi, farzandi haqida tinmay qayg‘uradi deb aynan yozilmaydi, lekin matndan bu anglashiladi.

Ramazon ko‘chaning o‘rtasida tomosha yasab, zavq bilan tushuntira boshlaydi:

– *Sen o‘tirasan, to‘g‘riga qarab. Men tepangda tik turaman, mana bunday. O‘ng qo‘lim sening yelkangda, ko‘zim chap bilagimdagi soatda bo‘ladi. Ikki jo‘ra! Qalay, zo‘r-a?*

– *Qo‘ysang-chi, – deyman, ularining to‘riga osig‘liq – otasi quroldosh og‘aynisi bilan xuddi shunday holatda tushgan surat ko‘z oldimga kelib. – Bobom zamonidan qolgan poza-ku bu! //*

Matnning o‘quvchiga tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi matnning morfologiyasi bilan ham bevosita bog‘liq. Muallif asar matnida bu vaziyatda nisbatan olmoshlardan ko‘proq foydalangani kuzatildi: // *Tergovchi unga anchayin bir ko‘z tashladiyu qaytib qo‘limga tutqazdi, sinovchan tikilib so‘radi:*

– *Og‘ayningiz avval ham chayqovchilik bilan shug‘ullanarmidi?*

Shunda og‘zimdan chiqqan gap uchun o‘zimni hech qachon kechirmasam kerak:

– *Shug‘ullangan bo‘lsa bordir, men qayoqdan bilay? U og‘aynim emas, shunchaki hamqishloq, hamshaharmiz.*

// *U s t a (u tomon bir ko‘z tashlab olib). Demak, hammang meniki, shundaymi? Demak, o‘sha basseynning ham egasi – men, to‘g‘rimi?*

N o d i r (boshini ko'tarib). **Dadam qurganlar uni!**

U s t a. **Obbo-o, hozirgina nima dedim-a bunga?! Dadalari qurganmish! (Andak tin olib.) Agar men senlarga baravar buva bo'lsam, buvangning basseyni ham har ikkalangga birdek tegishli-da, a, labbay?//** belgilangan jumlar tarkibida so'zlar tartibi o'zgarimoqda. Dastlabki jumlada urg'u egaga tushmoqda va u gap oxirida kelib ta'kidlab aytilmoqda. Bu o'quvchiga predmetga egalikni kuchliroq tasvirlash orqali tushuntirish imkonini beradi. Usta men bassening egasiman, deganda uni bolakayning tasi ya'ni cholning o'g'li qurgani bu egalikka ishonchsizlik uyg'otardi. Bu basseynning egasi menman, deyish ustaga da'vo qilish maqomini bermoqda va so'zlovchi (usta) muloqotning keyingi bosqichlarida fikrini, da'vosini asoslab beradi.

Asar matnida bolalarni avaylab ularni erkalabroq koyish ma'nosini ifodalovchi til birliklari qo'llanilgan. Bu ham muallifga xos bo'lgan muhim bir ustunlikdir:

// *N o d i r* (Sherzodga yovqarash qilib). *O'zi suzishni bilmaydi-yu!..*

U s t a. **O'rganadi. Bilmasa – o'rgatasan! Jonajon am Mangning o'g'li, o'zingning jigaring bo'lsa bu!..**

L a t o f a t. **Nevaralaringiz tag'in qozi qidirib yurishibdimi, dada?**

Yozuvchi tomonidan mahorat bilan yozilgan "Anoyining jaydari olmasi" kinoqissasini sotsiopragsmatik tahlil qilishda maxsus tanlab olingan matnlar ustida ishlanadi. Unda so'zlovchi va tinglovchi, matn muallifi va adresat o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etiladi. **Quyidagi matnning lingvopoetik xususiyatini so'z tartibi orqali aniqlashga harakat qilamiz:** // *Sudga ikki kun qolganda – kuyadori hidi anqib turgan kostyumiga urushda olgan medallarini taqib Ramazonning otasi va sovxoza shofyorlik qiladigan akasi yetib keldi.*

Ota ko'rgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi:

– To'ydan qochib kelib edi. Tog'asining qiziga ko'ngli yo'qmi, to'ydan gap ochdingiz – o'qishni bahona qilib, Toshkandga jo'naydi. Armiyadan qaytganidan beri shu ahvol. Uyoqda enasi og'ir yotibdi, "Ulimning mavridginasini ko'rmay ketadigan bo'ldim-da", deb chirqillagani chirqillagan. Bozor bormoq tugul og'zidagini eplab yutolmaydigan bolaning bu ishini qarang endi!// Asar qahramonining ijtimoiy holati, tafakkuri, dunyoqarashi haqida ma'lumotlardan iborat tafsilotga sira hojat qolmagan. Har bir qahramon o'z nutqi orqali kimligini, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini ro'y-rost namoyon qilmoqda. Ramazonning otasi o'z nutqida jonli til elementi hisoblangan sheva so'zlaridan foydalanyotgani, o'zbekcha, eski urf-odatlarining ota-ona orzusiga bog'liqligi suhbat mazmunidan anglashilib turibdi. Muallif adresatga onaizorning holatini yaqqol tasvirlash uchun otaning tilidan "chirqillagani chirqillagan" fe'lini qo'llaydi. Bu farzandini kutayotgan, undan xavotir olayotgan onaning holati.

Muloqot inson tafakkuri faoliyatining mahsuli bo'lib, bu jarayonda nutq egalari tomonidan turli maqsadlarga yo'naltirilgan rang-barang nutqiy tuzilmalar (nutqiy aktlar) hosil qilinadi. Nutqiy akt jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinib, nutq xulqi qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi. Nutqiy akt nazariyasi ilk bor ingliz filosofi J.Ostin tomonidan ilgari surildi. Nutqiy akt nazariyasi asoschilari J.Ostin, J.Serl, J.Rosslarning qarashlariga ko'ra muayyan mazmunni ifoda etuvchi, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda bayon etilgan elementar nutqiy harakat nutqiy akt hisoblanadi. Xususan, J.Ostin nutqiy aktda quyidagilar amalga oshishini qayd etadi: umume'tirof etilgan til kodiga mansub aniq tovushlarni talaffuz etish; ushbu tilga mansub so'zlardan grammatik qoidalar asosida jumla tuzish; jumlaning mazmun, referensiya va boshqalar bilan ta'minlash; nutqiy qo'llanishlarni hosil qilib, voqelik bilan muvofiqlashtirish; nutqiy qo'llanishlarni illokutiv aktga aylantiruvchi muayyan maqsadga yo'naltirish; kerak bo'lgan natijaga erishish, adresat ongiga yoki xulqiga ta'sir ko'rsatish, yangi nutqiy vaziyatni yaratish. T.V. Jerebiloning qayd etishicha, nutqiy akt psixofizik jarayon bo'lib,

so'zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat) o'rtasidagi nutqiy aloqani aks ettiradi va quyidagi komponentlardan tashkil topadi: 1) so'zlash (yozish); 2) idrok etish; 3) nutq (matn)ni tushunish.

M.Hakimovning fikricha, – nutqiy akt tushunchasi odamlar o'rtasidagi aloqa aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining bayonidir. Ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, nutqiy akt nutqiy muloqot doirasida amal qiladi, so'zlovchi va tinglovchidan iborat nutq ishtirokchilari, nutqiy vaziyat, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari, nutq ishtirokchilarining til bilimi va ko'nikmalari bilan bog'liq holda shakllanadi. M.Hakimov nutqiy aktda umumiy holda quyidagi komponentlar ishtirok etishini qayd etadi: so'zlovchi, tinglovchi, nutq obyektiga – faktik material hamda nutqiy vaziyat. M. Qurbonova nutqiy aktning amal qilishi uchun zarur bo'lgan komponentlar qatoriga nutq ishtirokchilarining umumiy til bilimi va til ko'nikmasini ham kiritish lozimligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, agar nutq ishtirokchilari umumiy til bilimiga ega bo'lmasalar, nutqiy akt nafaqat tomonlarga tushunarsiz, balki amalga oshishi dargumon bo'lib qoladi. Nutqiy akt so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgani bois uning turli ko'rinishlari farqlanadi. Xullas, kinoqissa matnidagi nutqiy faoliyatlarida muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutqiy aktning bevosita va bilvosita turlaridan unumli foydalanadilar. Ularning nutqida qo'llangan bilvosita nutqiy akt turlarida quyidagi ikki xil holat kuzatiladi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlanib qoladi, unga qo'shimcha sintaktik ma'no yuklanadi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali u ifodalashga xoslangan axborot va qo'shimcha axborot bayon etiladi. Bunda ayni sintaktik strukturaning semantik ko'lamiga kengayadi; b) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi butkul yo'qoladi, uning o'rnini o'zga sintaktik ma'no egallaydi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali so'zlovchi maqsadi bilan bog'liq tarzda o'zga axborot bayon etiladi:

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик и фодаланишининг синтактик усули. – Т.: Фан, 1987. – 86 б.
2. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Т., 1992. – 52 с.
3. Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. – М., 1976. – 279 с.
4. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 112 б.
5. Падучева Е. В. Коммуникативная расчлененность и пути ее
6. преодоления: инверсия подлежащего // Фонетика и нефонетика: К 70-летию Сандро В. Коздасова. – М.: Языки славянских культур, 2008. – 417—426 с.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти,. 92-бет. 2006.
8. Собиров А.К. Шеърятда сўз тартиби (Ҳозирги ўзбек шеърятини мисолида). Филол.фан.бўй.фал.док. ...дисс. – Самарқанд, 2020. – 138 б.